

OILA QURISHDA NIKOH OLDI OMILLARI VA MOTIVLARINING
ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sobirova Sojidxon Akramjon qizi

Annotatsiya: *Maqolada nikoh oldi omillari, oila qurish motivlarining etnopsixologik xususiyatlari va oilaviy hayotga moslashuv jarayonida yangi turmush qurgan kelin-kuyovlarning nikohga ma'naviy tayyorgarligi va uning ahamiyati xususida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, qozoq va o'zbek oilalariga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlarda oila qoidalari mavjud bo'lib, ularning oilani saqlash, oilaviy nizolarni bartaraf etish, oilada yoshlarni nikohga ma'naviy jihatdan tayyorlashdagi ko'rsatgichlari empirik tadqiq etilib, taxlili berilgan, natijalar asosida xulosa va tavsiyalar yoritilgan.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *nikoh, nikoh motivlari, oila, oila muhiti, tarbiya, axloq, nikohga ma'naviy tayyorgarlik, oilaviy moslashuv, etnopsixologik xususiyatlar, oilaviy munosabatlar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются добрачные факторы, этнопсихологические особенности мотивов построения семьи, духовная подготовка молодоженов в процессе адаптации к семейной жизни и ее значение. Кроме того, эмпирически исследованы и проанализированы социально-психологические и этнопсихологические характеристики казахской и узбекской семей, семейные правила, их показания к сохранению семьи, устранению семейных конфликтов, духовной подготовке молодежи к браку в семье, сделаны выводы и рекомендации. были выделены по результатам.*

Ключевые слова и понятия: *брак, брачные мотивы, семья, семейная среда, воспитание, нравственность, духовная подготовка к браку, семейное приспособление, этнопсихологическая характеристика, семейные отношения.*

Annotation: *The article discusses pre-marriage factors, ethnopsychological features of family building motives, and spiritual preparation of newlyweds in the process of family life adaptation and its importance. In addition, socio-psychological and ethno-psychological characteristics of Kazakh and Uzbek families include family rules, their indications for preserving the family, eliminating family conflicts, spiritually preparing young people for marriage in the family have been empirically researched and analyzed, conclusions and recommendations have been highlighted based on the results.*

Key words and concepts: *marriage, marriage motives, family, family environment, education, morality, spiritual preparation for marriage, family adjustment, ethnopsychological characteristics, family relations.*

Respublikamizda oila va oilaviy munosabatlarga e'tibor davlat siyosati darajasiga kotarilgan. Hozirgi kunda oila muammosini tadqiq qilishda, avvalo bugungi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tiborni qaratish lozim. Chunki ko'p hollarda turmush qurgan ikki yosh o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nozik jihatlari haqida yetarli bilim, zaruriy ko'nikma va malakaga ega bo'lmaslik, qolaversa ikki yoshning bir-biri hamda oilaviy

rollarning taqsimlanishi to'g'risidagi adekvat tasavvurlarning shakllanmaganligi ular munosabatlarining ijobiy kechishi va dinamik jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o'rganish va tadqiq etish juda muhimdir. Chunki bu orqali hozirgi o'zbek oilasining mustahkam va baxtli etish yo'llarini aniqlash mumkin. Shunday ekan, bu mavzu eng dolzarb masala hisoblanadi.

Oilaviy munosabatlar keng qamrovli bo'lib, ular nafaqat huquq me'yorlari bilan tartibga solinadi, balki unda odob-axloq va urf-odat qoidalariga ham amal qilinadi. Ana shulardan kelib chiqib, nikohlanuvchi shaxslarga nikoh tuzilishining huquqiy asoslarinigina emas, balki uning psixologik jihatlarini tushunarli, sodda tarzda bayon etish oilalar mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oila psixologiyasida nikoh quruvchilarning nikoh qurish omillari va shartlari masalasi muhim bo'lib, nikoh qurish omillariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Oilaviy hayotga yetuklik.

- Oila qurish yoshi.
- Oila qurish motivlari.
- Oila qurilguncha tanish muddati.
- Oila qurish shartlari va sharoitlari.
- Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari

Nikohga yetuklik omillari qatoriga yoshlarning oilaviy hayotga ma'naviy yetukligi, ularning oila qurish motivlari, nikoh qurish yoshiga oid fikrlari va bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlarini kiritar ekanmiz, bu jihatlarining har biri qanday xususiyatga ega ekanligini ko'rib chiqamiz. Nikohga yetuklik tushunchasi o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam rivojlanib, takomillashib boruvchi, o'z ma'naviy, axloqiy rivojida muntazam ravishda yangiliklarni o'ziga singdiruvchi mavjudotdir. Kishining yetukligi, ayniqsa, oilaviy hayotga yetukligi masalasida fikr yuritilganda, bu tushunchadan bir shartli o'lchov sifatidagina foydalaniladi. Nikohga yetuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin.

Nikoh oldi omillaridan biri - bu nikoh qurish uchun asos bo'lgan nikoh motivlari hisoblanadi. Oila qurilishida bir necha o'nlab nikoh motivlari mavjud. Lekin ularni umumlashtirilgan ravishda uchta toifaga ajratish mumkin:

1. Sevgi tufayli oila qurish.
2. Moddiy yoki o'zga manfaatdorlik asosida oila qurish.
3. Stereotip bo'yicha oila qurish

Nikoh - avvalo er-xotinlik ijtimoiy rollarini qabul qilish bo'lib, qoidaga ko'ra yangi oila ota-ona oilalaridan birining hududida yashay boshlashi, oilaga yangi insonning kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Oilaviy hayotning boshlang'ich bosqichi umumiytasavvurlarga ko'ra oila rivojlanishining eng yoqimli bosqichi hisoblanadi. Turmush qurayotgan yoshlarning aksariyatida xuddi ana shunday kutilmalar mavjud bo'ladi. Lekin bu bosqich davomida er-xotinlar hissiyotlarining jadalligi o'zgaradi, kelin-kuyovlar va ularning genetik oilalari bilan fazoviy hamda psixologik masofa o'rnatiladi. Tabiiyki, bu vazifalar osonlikcha hal bo'lmaydi.

Har bir inson turmush qurar ekan, oila tizimiga oilaviy munosabatlarni qanday qurish haqidagi o‘z tasavvurlari va kutilmalariga ega bo‘lgan holda kirib keladi. Nikoh inson hayotidagi tub burilish voqeligi sifatida shaxs rivojlanish vaziyatini o‘zgartirib yuboradi va rollar almashinuvi, o‘zaro ta’sirga kirishuvchi atrofdagi odamlar doirasining va umuman insondagi «Men» obrazining o‘zgarishi bilan xarakterlanadi. Mazkur vaziyat har qanday insondan yangi tizim normalari va qadriyatlariga moslashuvni talab etadi.

Ma’lumki, psixologik moslashuv sotsiumdagi normalar va qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. U o‘zaro ta’sirda, jumladan atrofdagi odamlar bilan muomalada va aktiv faoliyatda namoyon bo‘ladi. Oilaga moslashuv ham o‘z ichiga yuqoridagi komponentlarni qamrab oladi va oilaviy hayot bilan tanishuv, unga asta-sekinlik bilan kirib borish jarayoni sifatida boshlanadi. Bu davr juda qiyin hisoblanadi, chunki nafaqat muomala va faoliyatni qayta qurishni, balki yosh er-xotinlarning o‘z ehtiyoj-motivatsion sohalarini qayta ko‘rib chiqishlari, o‘zini o‘zi anglashning yangi darajasi, ijtimoiy muhit bilan yangi aloqalarni shakllantirishlarini taqozo etadi. Yangi tuzilgan oilada bir qator moddiy, psixologik, ijtimoiy-psixologik xarakterdagi qiyinchiliklar va muammolarni yengishga to‘g‘ri keladi.

1-jadval. Sinaluvchilarda nikohga ma’naviy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik koeffitsientlari (n=200)

	Oilalarda	x	σ	t
Kelinlar	Qozoq	55,00	10,17	-0,503
	O‘zbek	56,00	7,83	
Kuyovlar	Qozoq	62,14	8,34	1,866
	O‘zbek	58,64	9,79	


Izoh: tadqiqot natijalarining ishonchliligi «SPSS-15.0» matematik statistika metodlari majmuasi bo‘yicha o‘rtacha qiymat va uning variatsiyasi, standart og‘ish, Student mezoni, Pirson bo‘yicha korrelyatsiya koeffitsientini hisoblab chiqish bilan asoslandi. Bunda x - o‘rtacha arifmetik qiymat, σ - standart og‘ish, t - oradagi farq hisoblanadi.

Oila-nikoh moslashuv jarayoni qanchalik samaraliligiga qarab, yosh oilaning barqaror yoki beqarorligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Moslashuv samaradorligi esa bir qancha omillar - ijtimoiy muhit sharoitlari va talablari, insonning muloqotmandlik, o‘zgalar bilan hamkorlik va kooperatsiyaga intilish, hamdard va hamnafas bo‘la olish qobiliyatlari, o‘z hissiyotlari va emotsiyalarini nazorat qila olish hamda kundalik stresslarni yenga olish malakasiga bog‘liq bo‘ladi O‘zbekistonda oilaviy hayotga moslashuv jarayoniga kelin-kuyovlarning nikohga ma’naviy tayyorgarligi ta’siri yuzasidan empirik tadqiqotlar olib borilganligi va ularning natijalarini ko‘rib chikamiz. Tadqiqot obyektni Navoiy viloyatining Konimex va Tomdi tumanlarida istiqomat qilayotgan qozoq oilalaridagi yangi kelin-kuyovlar tashkil qiladi (jami 100 nafar). Nazorat guruhin Navbahor tumanida istiqomat qiluvchi 100 nafar o‘zbek kelin-kuyovlari tashkil qiladi. Tadqiqot natijalari oila-nikoh masalalari bilan shug‘ullanuvchi amaliy psixologlarning faoliyatlari, nikoh uylari va ahalla fuqarolar yig‘inida qo‘llaniladi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqadigan xulosalardan: Navoiy viloyati Konimex va Navbahor tumanlaridagi mahalla qo‘mitalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash yo‘nalishlarida targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish va psixologik maslahatlar berishda foydalaniladi (2009-yil 11-noyabrdagi va 2010-yil 25-martdagi yildagi dalolatnomalar).

Tadqiqotda jami 200 nafar (100 kelin, 100 kuyov) respondent (sinaluvchi)lar ishtirok etishgan. Mazkur tadqiqotda «Nikohga ma'naviy tayyorgarlik» testidan foydalanilgan. Mazkur test 16 ta savoldan iborat bo'lib, yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasini 5 ballik tizimda baholash imkonini beradi.

Qozoq va o'zbek oilalaridagi yangi turmushqurgan kelin-kuyovlarning oilaviy hayotgamoslashuv jarayoniga nikohga ma'naviy tayyorgarligi ta'sirini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan «Nikohga ma'naviy tayyorgarlik» testi 1-jadvaldagi kabi natijalarni berganligini kurishimiz mumkin. Kelin-kuyovlarning nikohga ma'naviy tayyorgarligini o'rganish natijalariga ko'ra, qozoq oilasidagi kelinlarda nikohga ma'naviy tayyorgarlikning o'rtacha arifmetik qiymat ko'rsatkichlari 55,00 ni va o'zbek oilasidagi kelinlarda 56,00 ni tashkil etadi. Shuningdek, qozoq oilasida kuyovlarning nikohga ma'naviy tayyorgarligi o'rtacha arifmetik qiymat ko'rsatkichlari 62,14 ni tashkil etgan bo'lsa, o'zbek oilasidagi kuyovlarda 58,64 ga teng ekanligi qayd etilgan (1-diagramma). Demak, qozoq hamda o'zbek oilalaridagi kelin va kuyovlarning nikohga ma'naviy tayyorgarligi yuqori darajani namoyon etib, ular orasida farqlar deyarli ko'zga tashlanmagan. Bu qozoq va o'zbek oilalarida kelin-kuyovlar oilaning muqaddasligini his qilishligini ko'rsatadi. Ular oilada o'zlariga ajratilgan ishlarga mas'uliyat bilan yondashish, oilada bo'ladigan nizolarni bartaraf etish, doimo ota-onasini tushunishga harakat qilib, oilani mustahkam saqlash lozimligini to'g'ri anglab yetadilar.

1-diagramma. Sinaluvchilarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajalari ko'rsatkichlari



Sharq xalqlarida jumladan, qozoq va o'zbek xalqlarida azaldan nikoh muqaddas deb sanalishi oila barqarorligining asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Nikoh oila qurayotgan ikki yoshning bir-biriga, jamiyatga, farzandlariga nisbatan bo'lgan ma'naviy, huquqiy burchi va mas'uliyatini belgilashdir.

Nikohga ma'naviy tayyorgarlik testi natijalari yosh kelin va kuyovlarning nikohga ma'naviy tayyorgarligi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Barcha sinaluvchilarda nikohga ma'naviy tayyorgarlik va ijtimoiy-psixologik moslashuv natijalarining korrelyatsion tahlili ular orasidagi ijobiy aloqadorlikni ko'rsatadi ($r=0,202$; $r<0,05$). Ta'kidlash joizki, qozoq va o'zbek oilalarida yoshlarni nikohga tayyorlash doim kattalarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ota-bobolarimiz qizlarning kelgusida oila bekasi, o'g'illarning oila qo'rg'oni ta'minotchisi va posboni ekanligini farzandlarga yoshlikdan o'rgatib, singdirib boradilar. Bu holat bo'lajak oilaning mustahkam bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Qozoq va o'zbek oilalariga xos bo'lgan

ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlarda oila qoidalari mavjud bo'lib, bu etnopsixologik xususiyatlar oilani saqlash, oilaviy nizolarni bartaraf etish, oilada yoshlarni nikohga ma'naviy jihatdan tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Qozoq oilalarida yoshlikdan qizlarni nikohga tayyorlashda kelinning vazifalari, unga yuklatiladigan mas'uliyatlarni uqtirib borishadi. Ular quyidagilardan iborat:

- turmush o'rtog'ining ota-onasi maslahatlariga quloq tutish, katta kelinlarga ergashish;
- qaynota-qaynona va katta kelinlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- o'z onalari nomiga dog' tushirmaslikka va erining oilasini qoralamaslikka harakat qilish;
- oiladagi kattalar turmush tarziga moslashish;
- erining opa-singillari bilan do'stlashish va sirlashish;
- salomlashish an'alarini saqlash, kuyov qarindoshlari bilan salomlashganda ta'zim qilish;
- eri va oilasiga sodiqlikni saqlash;
- kuyov qarindoshlarining ismini aytib murojaat etmaslik va kuyov qarindoshlaridan yuqoriga chiqib o'tirmaslik;
- bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berish, kattalarning maslahatiga quloq solish.

Muvaffaqiyatli nikoh manbalaridan biri - shaxsning oilaviy hayotga tayyorgarligi, ijtimoiy-psixologik va fiziologik jihatdan yangi sharoitga, yangi rollar va majburiyatlarga moslasha olish ko'nikmasining shakllanganligidir. Oilaviy munosabatlar madaniyatini shakllantirish er-xotinlarning o'zlariga bog'liq. Ulardan hattoki bittasi ham bunga tayyor bo'lmasa, oila barqarorligi xavf ostida qoladi. Xuddi shunday milliy qadriyatlar o'zbek xalqida ham mavjud. Yigit-qizlarni yoshlikdan oilaga tayyorlash, kattalar bilan muomalada bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish, uy-ro'zg'or ishlariga erta jalb etish, oilaviy qadriyatlarni hurmat qilishni singdirish har bir o'zbek oilasida farzand tarbiyalash davomida amalga oshirib boriladi. Demak, olingan natijalardan xulosa shuki, yosh kelinlarning yangi muhitga singib ketishida oiladagi er-xotin munosabatining, shuningdek, ularning nikohga ma'naviy jihatdan tayyorgarligining o'rni beqiyosdir. Oiladagi yosh kelin-kuyovlarning o'zaro totuvligi, ahilligi va bir-biriga mehr-muhabbati, hurmati, samimiy munosabati ularning yangi muhitga moslashuvida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislar oilaviy moslashuvning rolli va shaxslararo turlarini ko'rsatib o'tib, ular doirasida er-xotinlarning bir-birlariga moslashish istagining yuzaga kelishi hamda bunday imkoniyatning amalga oshirishini ta'kidlaydilar. Rolli moslashuv - o'zaro rolli kutilmalarga nisbatan tasavvurlarning mos kelishi va o'zgarishidir. Shaxslararo moslashuv esa o'z ichiga psixologik va ma'naviy moslashuvni qamrab oladi. Psixologik moslashuv turmush o'rtog'idagi ichki «men»ni, uning odatlari, xarakter xususiyatlarini bilishdan iborat. Ma'naviy moslashuv esa oilaviy qadriyatlar, ustanovkalar (ko'rsatmalar), oila a'zolari shaxslilik xususiyatlaridagimutanosiblik bilan belgilanadi. Oilaviy hayotning dastlabki bir-ikki yillarida muomalaning individual stereotiplari shakllanadi, qadriyatlar tizimi moslashtiriladi, umumiy xulq-atvor yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Aynan shu davrda er-xotinlarning o'zaro moslashuvi, ularning har ikkalalarini ham qoniqtiradigan o'zaro munosabatlar tipini izlash yuz beradi. Yangi kelin-kuyovlar bir-birlaridan ko'p narsa kutadilar. Ko'pgina juftliklar oiladagi erkak va ayol o'rtasidagi rollar taqsimoti haqida aniq tasavvurga ega. Bundan tashqari, yosh kelin-

kuyovlarda oilaviy hayotni birmuncha ideallashtirish ko‘zga tashlanadi, ya’ni ular oilaviy hayotdan birinchi navbatda o‘zlarining ma’naviy o‘shish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni kutadilar, bunda asosan turmush o‘rtoqlariga suyanishga harakat qiladilar. Shu bilan birga barcha turkiy xalqlar urf-odatlarida dastlab ota-onalar bilan yashash, keyinchalik esa mustaqil bo‘lib chiqish tendensiyasi mavjud. Kelin nafaqat turmush o‘rtog‘i, balki uning ota-onasi va oilaning boshqa a‘zolari bilan ham o‘zaro munosabatlarga kirishishi, ular bilan til topa bilishi, oilaning boshqa a‘zolarining kelimga munosabati ham uning shu oilaga moslashib ketishida ma‘lum darajada rol o‘ynashi tabiiy. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan kelin kuyovlarning yangi oilaga moslashuvida nikohga ma’naviy tayyorgarlik darajasi bilan bir qatorda, yoshlarning uy-ro‘zg‘or ishlari, psixologik rollar, yangi majburiyatlar, huquqlar, mehnat taqsimoti, boshqalarning rolli kutilmalari asosida o‘z xulq-atvorini o‘zgartira olishlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash lozim.

Demak, olingan natijalarga tayangan holda aytish mumkinki, yoshlarning oilaga moslashuvida ularning nikohga ma’naviy tayyorgarlik darajasi ham asosiy omillardan biri sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birgalikda yoshlarning oilaga moslashuvining etnopsixologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida ushbu tavsiyalarni berishni zarur deb hisoblaymiz:

1. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning ma’naviy, kasb jihatidan, ya’ni professional, ijtimoiy, huquqiy, psixologik yetuk bo‘lishlariga erishish. Buning uchun yoshlarga pedagog-o‘qituvchilar, ota-onalar, kattalar tomonidan shu jihatlarning muhim ekanligini o‘rgatib borish va tushuntirish;

2. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ishini muhim deb qarab, oilaga doir suhbatlar uyushtirish; hayotiy misollar vositasida nikoh qurish omillarining nikoh barqarorligiga ta’sirining ibratli jihatlarini ko‘rsatish orqali bu muammoga doir ijobiy tasavvur shakllantira olish.

3. Qizlar tarbiyasida shaxslararo munosabatlarga kirisha olish, yangi sharoit, ijtimoiy rollar va majburiyatlarga moslasha olish,

o‘zini o‘zi nazorat qila bilish malakalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

4. Qizlar tasavvurida yangi oila xususida ijobiy xislatlarni shakllantirish, milliy urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar mavzusida turli xil davra suhbatlari, sharoitga qarab xulq-atvor shakllarini o‘zgartira olish malakalarini rivojlantirish bo‘yicha ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

5. Mahalla va xotin-qizlar qo‘mitalari, psixologik maslahat markazlari qoshida yosh kelin-kuyovlarga psixologik xizmat ko‘rsatish, ular bilan oilaviy munosabatlar madaniyatini shakllantirish, oilaga moslashish jarayoniga ta’sir etuvchi to‘siqlarni yengish koping strategiyasini ishlab chiqishda ko‘maklashish borasidagi tadbirlarni amalga oshirish, zarur hollarda turli sohadagi malakali mutaxassislarni bu jarayonga jalb etish yosh oilalar barqarorligi va mustahkamligini ta’minlashga xizmat qiladi.

1. Андреева Т.А. Семейная психология. – М., 2004. –С. 242.
2. Арапбаева Д.К. Ёшларнинг оилавий ҳаётга мослашувида маънавий-ахлоқий масалалар. Замонавий таълим . Илмий мақола - №5 2016 .-С.36-41 с
3. Арғинбаев Х. Қазақтың отбасылық дәстүрлері. – Алматы: «Қайнар», 2005. – 216-б.
4. Гордон Л.А. Социальная адаптация в современных условиях. / «СОЦИС», 1998, № 8/9. –С. 85-102.
5. Каримова В.М. Оила маърифати (ёшларга оила илми ҳақида биринчи рисола).Илмий-оммабоп нашр. – Т., 2009. –44-б.
6. Каримова В.М. Саломатлик психологияси. – Т.: «Янги аср авлоди», 2005. -26-б.
7. Кроник А.А., Кроник Е. В главных ролях: вы, мы, он, ты, я: психология значимых отношений. – М.: «Мысль», 1989. –С. 226.
8. Узақов Ҳ., Ғозиев Э.Ғ., А.Тожиев А. Оила этикаси ва психологияси. – Т.: «Ўқитувчи»,1992. –128-б.
9. Шнейдер Л.Б. Основы семейной психологии. – М.: Изд-во Моск. психол.-соц.ин-та, 2003. –С. 341.
10. Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси. (Академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув қўлланма). / Ғ.Б. Шоумаров таҳрири остида. – Т.: «Шарқ», 2008.–296-б.
11. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В.В. Психология и психотерапия семьи. – СПб.:Изд-во «ПИТЕР», Серия «Мастера психологии», 1999. –С. 656.
12. Nuraliyeva D. M. STUDYING SUSCEPTIBILITY TO THE BEHAVIOIR OF THE PAIR IN THE RELATIONSHIP BETWEEN MAN AND WOMAN AND GIVING A SOCIAL-PSYCOLOGICAL HELP //Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 5. – С. 32-34.
13. Nuraliyeva D. M. Development of socio-psychological mechanisms of psychological services to families and children. – 2019.
14. Dildora N., Social A. K. psychological characteristics of families on the verge of divorce 2021 //Special Issue on Engineering Technologies and Management C-3889-3897.
15. Nuralieva D. M. CHARACTERISTICS OF MARRIAGE RELATIONS IN PROVIDING PSYCHOLOGICAL AID TO THE FAMILY AND IT INFLUENCE ON THE STRENGTH OF MARRIAGE //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 411-414.
16. Mamurjonovna N. D., Nurislom Ulug'bek o'gli K. A STUDY OF THE SOCIAL PERCEPTIONS OF CHILDREN OF HAPPY AND CONFLICTED FAMILIES ABOUT THE FUTURE //Conference Zone. – 2022. – С. 9-11.
17. Mamurjonovna N. D. PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS. – 2022.
18. Mamurjonovna, Nuraliyeva Dildora. "PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS." (2022): 115-121.

19. Mamurjonovna N. D., Moydinova Z. FAMILY STABILITY THE INFLUENCE OF PREMARITAL FACTORS. – 2022.
20. Mamurjonovna, Nuraliyeva Dildora, and Z. Moydinova. "FAMILY STABILITY THE INFLUENCE OF PREMARITAL FACTORS." (2022): 268-273.
21. Нуралиева Д. М. ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 6. – С. 39-43.Нуралиева,
22. Нуралиева, Д. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. Uzbek Scholar Journal, 6, 39-43.
23. Нуралиева, Дилдора Мамуржонова. "ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ." Uzbek Scholar Journal 6 (2022): 39-43.
24. Nuralieva D. M. THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 405-410.
25. Нуралиева Д. М. КОНЦЕПЦИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ СЕМЬИ //ББК Ю953. – 2020. – С. 405.
26. Mamurjonovna N. D. The concept of psychological service and its controversial issues in family //Archive of Conferences. – 2020. – Т. 2. – №. 2. – С. 34-36.
27. Shamsiev O', Abdusamatov X. Dastlabki muloqot – shaxs shakllanishining asosi. Central Asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS) Universal Impact Factor: 7,1 ISSN:2181-2454. DOI: 10.24412/2181-2454-2022-2-202-207 VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2022. В. 202-207.